



## XORIJIY TILLARNI YANGI O'RGANUVCHILAR YO'L QO'YADIGAN XATOLAR, MUAMMOLI VAZIYATLAR VA ULARNING TAHLILI

**Ergasheva Fotima Ne'matulla qizi**

*Samarqand Davlat Chet tillari Instituti, Ingliz tili 2 fakulteti, "Xorijiy til va adabiyot"  
yo'nalishi, 2-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Bugungi rivojlanib borayotgan global zamonda xorijiy tillarni puxta egallagan kadrlarga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bu esa chet tillarini keng ommalashuviga va xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'lmoqda. Ammo ko'plab o'rganuvchilar tomonidan xorijiy tillarni o'rganish jarayonida bir qator xatolarga yo'l qo'yilishi yoxud ba'zi muammoli vaziyatlarga duch kelinishi sababli ularning yangi o'rganilayotgan tillarga bo'lgan ishtiyoqining tezda yo'qolib qolishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolada xorijiy tillarni yangi o'rganishga kirishgan o'rganuvchilar yo'l qo'yadigan ba'zi xatolar, muammoli vaziyatlar va ularning tahlilini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** tilni o'rganish ko'nikmasi, zaif o'rganuvchilar, jargon, dialect, til sohasi.

### **Kirish**

Albatta har bir inson biror ishga qo'l urish orqali ma'lum maqsadga erishishni ko'zlaydi. Shu qatorda ingliz, fransuz, nemis yoki boshqa ko'plab tillarni o'rganishga kirishgan yangi til o'rganuvchilari ham yangi tillarni o'rganish orqali ma'lum bir maqsadga, natijaga erishishni ko'zlaydi. Afsuski, ba'zi til o'rganuvchilari kundalik hayotda ma'lum bir to'siqlarga duch kelishini hech ikkilanmasdan aytish mumkin. Whitaker (2009) fikriga ko'ra o'rganuvchilar o'rtasidagi til muammolari aloqa bilan bog'liq bo'lgan bir nechta toifalarga guruhlanishi mumkin va bu toifalar o'z navbatida til o'rganuvchilar ko'nikmalarini oshirishga yordam berishi mumkinligini ta'kidlaydi.

### **MUHOKAMA**

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganuvchilar mazkur tilni o'rganish orqali faqat bir tomonlama natijalarga erishishni ko'zlashadi, ya'ni ular yangi xorijiy til o'rganish orqali faqat kirish testlarida yaxshi natijalarga erishish, o'zlari o'rganayotgan til bo'yicha til bilish sertifikatini qo'lga kiritish yoki mazkur tilda shunchaki so'zlashish ko'nikmasini shakllantirishni maqsad qilishadi. Bu esa o'rganilayotgan tilga yuzaki munosabatni shakllantirishga sabab bo'ladi. O'z o'rnida o'rganilayotgan tilga nisbatan bunday yuzaki munosabat ularning mazkur tilni, undagi o'ziga xos ibora va murakkabliklarni to'liq anglab yetishga xalaqit beradi va oqibatida ular o'rganayotgan tillarida o'zlari kutganday muvaffaqiyatga



erisha olmaydi. Bu ularning xorijiy tillarni o'rganishiga bo'lgan ishtiyoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ular "Bu mening ona tilim emas, bu tilni to'liq bilishim shart emas" degan xulosaga kelishadi. Aslida esa til o'rganish jarayoniga nisbatan bunday qarash mutlaqo xato. Xorijiy tillarni o'rganish va o'rganayotgan tilda ravon gapira olish ushbu tilni o'rganishga jiddiy kirishishni talab etadi. Tilni o'rganishga yuzaki emas jiddiy qarash ushbu tilni, undagi murakkabliklarni to'liq tushunishga va kelajakda ushbu tilda qiyinchiliklarsiz muloqot qilishga yo'l ochadi.

Bu boshqalari orasida eng muhim va e'tibordan chetda qoladigan muammodir. Bu muammoni hal qilish juda qiyin bo'lgan masalasi shundaki, ko'plab jamoalar o'zlari til o'rganuvchi bo'lganliklari uchun ular kim yaxshi o'qituvchi va kim yaxshi emasligini aniqlay olmaydilar. O'qituvchi nima desa, to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lsin, o'rganuvchi tomonidan to'g'ri deb qabul qilinadi. Bu o'rganuvchilar orasida katta chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Chunki turli xil o'qituvchilar ularga har xil narsalarni aytadi. Bu muammoning asosiy sabablaridan biri o'qituvchilarning o'z ona tillariga tarjima qilishdagi qiyinchiliklaridir. Misol uchun, ba'zi so'zlarni turli o'qituvchilar turlicha talaffuz qilishlari mumkin. O'qituvchi o'rganuvchilar o'rganayotgan tilda muloqot qilishda hushyor bo'lishi kerak. Ular darsni to'g'ri metod yordamida o'tkazishlari kerak. Shundagina dars samarali va oqilona bo'ladi. Agar o'qituvchi o'rganuvchilarning tilni yaxshi o'zlashtirayotganini bilsa ham ularning yonlarida ularning natijalarini baland baholamasliklari maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, u qanchalik til o'rganishda yuqori natijaga erisha ham baribir u tilda o'z ona tilisidek natijaga erisha olmaydi va o'qituvchisining unga nisbatan baland rag'batini o'ziga nisbatan keragidan ortiq ishonchning ortishiga sabab bo'ladi.

O'rganuvchilar orasida ularning qanchalik bilishi va tez o'rganishi borasida juda ko'p farqlar mavjud. Ushbu vaziyatning eng muhim muammosi eng kuchli o'rganuvchilar bilan birga bo'lish uchun o'rganuvchilar tezligini belgilash. Ba'zan zaiflar ortda qolishi mumkin. O'rganuvchilar orasidagi munozaralar va mashg'ulotlarda zaiflarni esdan chiqarmaslik kerak. Ular darsning asosiy sahnalari bo'lishi va kuchli o'rganuvchilar ularga har jihatdan ushbu jarayonda yordam berishi kerak.

## **NATIJALAR**

Xorijiy tillarni o'rganishdagi yana bir muhim muammolardan biri bu xorijiy tilni o'rganishga mo'ljallangan materiallarning haddan tashqari ko'pligidir va o'rganuvchilarning odatda o'qish dasturlarining o'ziga mosini tanlay olmasligi va keyinchalik o'qitish dasturlariga ko'nikib ketolmasligidir. Kitoblar zarur material bo'lishi mumkin, lekin kitoblarning o'zigina yetarli emas. Audio materiallar ham



muhim hisoblanadi. Agar o'rganuvchi kitobdan tovush belgisini ko'rsa, uni qanday talaffuz qilishni biladimi? Gap shundaki, til o'rganuvchilar ona tilida so'zlashuvchining to'g'ri talaffuzini ko'proq eshitishlari kerak. Ularning o'qishi kerak bo'lgan kitoblari bor lekin ba'zi so'zlarning to'g'ri talaffuz qila olmaydilar. O'rganuvchilar to'g'ri talaffuzni o'qituvchisidan, yoki o'sha tilda yaxshi so'zlashuvchi kishidan eshitishlari kerak. O'rganuvchilar o'rganayotgan tilidagi filmlardan ko'rib o'rganishga moyil bo'lishadi. Ular ko'pincha tomosha qilgan filmlaridan o'rganishadi. Biroq ular ko'pincha noto'g'ri narsalarni o'rganishadi. Chunki filmlar ko'p muloqot shakllariga mos kelmaydigan jargon va dialektlarni o'z ichiga oladi. O'quv materiallari o'rganuvchiga eng muhim yordam beradi. Shuning uchun o'qituvchilar o'rganuvchining darajasi va o'rganish uslubiga mos keladigan narsalarni tanlashlari lozim. Turli o'qituvchilar tilni o'rganish jarayonida o'rganuvchilarning muammolari haqida turli xil ma'lumot berishlari mumkin. Bu muammolar quyidagi kabi bo'lishi mumkin:

- so'z boyligining yetishmasligi

- to'g'ri talaffuz

- gapirishda ikkilanish

- yangi tilni o'rganishda grammatika tuzilishni tushunish

- qiziqish yo'qligi

- ko'pchilik o'quvchilar yangi tilni tushunish uchun tarjima usulidan foydalanishi

O'rganuvchilar yangi tilni o'rganishda til o'qituvchisi tomonidan tavsiya etilgan materiallardan foydalanishga ishonch hosil qilishi uchun juda ehtiyot bo'lishlari kerak va eshitish uchun to'g'ri audio materiallarni olishlari kerak.

"Ba'zida xorijiy tillarni o'rganishda qaysi usul samaraliroqdir? O'qituvchi bilan yuzma-yuz holda alohida o'rganishmi yoki guruhlariga birikkan holda o'rganish?" degan savol til o'rganishga endi kirishgan o'rganuvchilar orasida paydo bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki yuqorida ko'rsatilgan ikki usul ham o'ziga hos ustunlik va kamchiliklarga ega. Misol uchun xorijiy tillarni guruhlariga birikkan holda o'rganish orqali xorijiy tilda gapirish ko'nikmasining tez shakllanishiga, darsda o'tilgan ma'lumotlarni o'zaro savol-javoblar orqali yanada mustahkamlab olishga erishish mumkin. Biroq xorijiy tillarni guruhda o'rganish davomida ajratilgan vaqtning o'zida barcha o'quvchilar bilan ham ishlashga yetmasligi, dars yuzasidan berilgan axborotlarning barchaga birdek tushunarli bo'lmasligi kabi muammolar duch kelishi ham mumkin. (1,2-bet).

Xorijiy tillarni o'qituvchi bilan yakka holda o'rganish jarayonida esa o'rganuvchi til yuzasidan o'zida paydo bo'gan barcha savollarga javob olish



imkoniyatiga ega bo'lishi, mavzuning nisbatan tushunarli bo'lishi va dars jarayonida ortiqcha narsalarga chalg'imasligi kabi qulayliklarga ega bo'ladi. Lekin til o'rganishning bu jarayoni ushbu tilda gaplashish ko'nikmasining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu muammo borasida Tom Robins "Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atigi 20 foizini tashkil etadi, qolgan 80 foizi psixologiyaga bog'liqdir" (2,73-bet) deb ta'kidlaydi. Shuni unutmash kerakki muvaffaqiyatning asosiy garovi bu tinimsiz mehnat va harakatdir.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki xorijiy tillarni o'rganish jarayonida xatolarga yo'l qo'ymaslik va muammolarga duch kelmaslik uchun yuqorida keltirib o'tilgan tavsiyalarga amal qilish va har qanday til o'rganuvchi ushbu jarayonga nisbatan ma'sulyatliroq bo'lishi hamda ,muntazam o'z ustida ishlashi lozim. Shundagina o'rganayotgan tilni to'liq egallashga va bu ushbu til sohasida yuqori natijalarga erishishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Geri McClymont "Simple strategies to help English language learners succeed in the classroom"(2020)
2. Jacobs A.A "Challenge encountered by learners of English language"(2019)
3. T. Robins "Maqsadga qanday erishiladi". 2013. Maqola
4. Z. Po'latova "Xorijiy tillarni o'rganishdagi muammolar". Maqola
5. сергеева Э,С (2021), Категория пространства в художественной литературе. Экономика и социум. (1-2), 957-950.